

O'zbekiston Prezidenti Vetnam bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni tubdan kengaytirish lozimligini ta'kidladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vetnam Sotsialistik Respublikasi vitse-prezidenti Vo Txi An Suan bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida Vetnam delegatsiyasi rahbari O'zbekiston yetakchisiga Vetnam Prezidenti Nguyen Suan Fukning samimiy salomini yetkazdi.

Muzokaralar chog'ida sholichilik, paxtachilik, go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash, kimyo va to'qimachilik mahsulotlarini, avtomobillar uchun butlovchi qismlar va elektronika ishlab chiqarish kabi istiqbolli yo'nalishlarda hamkorlik qilish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun mavjud imkoniyatlar qayd etildi.

Ishbilarmonlik aloqalarini faollashtirish va investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish maqsadida yaqin oylarda ekspertlar darajasida o'zaro tashriflar o'tkazilishi, Hukumatlararo komissiya faoliyati qayta tiklanishi hamda O'zbekiston-Vetnam Ishbilarmonlar kengashi tashkil etilishi yuzasidan kelishib olindi.

Parlamentlararo munosabatlarni yo'lga qo'yish, ta'limga oid va boshqa qo'shma gumanitar dasturlarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.



Manba